

TAKROR HODISASI SINTAKTIK FIGURA SIFATIDA

Yunusova Jamila Boltaboyevna,

O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi (PhD),

O'zJOKU o'qituvchisi

Jamila2020_yunusova@mail.ru.

Annotatsiya. Bugungi kunda jahon tilshunosligida antroposentrik tilshunoslik jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Tilni inson omili bilan birga o'rganish tilshunoslikning qator yo'nalishlari uchun keng yo'l ochmoqda. Xususan, lingvopoetika sohasi tilning badiiy matnda estetik funksiyalashuvini tadqiq etuvchi soha bo'lib, tilning ifoda imkoniyatlarini, til birliklarining badiiy matnda emotsional-ekspressiv ta'sirchanlikni yuzaga keltirish mexanizmini o'rganadi. Sintaktik figuralar matnning sintaktik-kompozitsion qurilishida muhim o'ringa ega. Takrorlar ham sintaktik figura sifatida matn qurilishida, matnning emotsional-ekspressivligini ta'minlashda lingvopoetik vazifa bajaradi. Ushbu maqolada takrorlarning she'riy matnda qo'llanishi, estetik imkoniyatlari lingvopoetik jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Takror, anafora, epifora, akromonogramma, lingvopoetika, emotsional-ekspressivlik, individuallashtirish.

Аннотация. В современном мировом языкознании антропоцентрическая лингвистика развивается стремительными темпами. Изучение языка в связи с человеческим фактором открывает широкие возможности для ряда направлений языкознания. В частности, лингвопоэтика является областью, исследующей эстетическое функционирование языка в художественном тексте, выразительные возможности языка, а также механизмы создания эмоционально-экспрессивного воздействия языковых единиц в художественном тексте. Синтаксические фигуры занимают важное место в синтаксико-композиционном построении текста. Повторы как синтаксическая фигура также выполняют лингвопоэтическую функцию в организации текста и обеспечении его эмоционально-экспрессивной выразительности. В данной статье с лингвопоэтической точки зрения исследуются особенности употребления повторов в поэтическом тексте и их эстетические возможности.

Ключевые слова: повтор, анафора, эпифора, акромонграмма, лингвопоэтика, эмоционально-экспрессивность, индивидуализация.

Abstract. Today, anthropocentric linguistics is rapidly developing in world linguistics. Studying language together with the human factor opens broad prospects for various branches of linguistics. In particular, linguopoetics is a field that investigates the aesthetic functioning of language in literary texts, the expressive potential of language, and the mechanisms through which linguistic units create emotional and expressive impact in artistic discourse. Syntactic figures occupy an important place in the syntactic and compositional structure of a text. Repetition, as a syntactic figure, also performs a linguopoetic function in the construction of the text and in ensuring its emotional and expressive effect. This article linguopoetically examines the use of repetitions in poetic texts and their aesthetic possibilities.

Keywords: repetition, anaphora, epiphora, acromonogram, linguopoetics, emotional-expressiveness, individualization.

Kirish. Dunyo tilshunosligida keyingi yillarda tilni nafaqat aloqa-aralashuv vositasi, balki ta'sir etish vositasi sifatida ham o'rganish ommalashib bormoqda. Bu vositalar doirasida she'riy nutq emotsional-ekspressivligi, obrazli fikr ifoda etish xususiyati bilan individual shakllangan nutq ko'inishi sifatida alohida o'ringa ega. Lirik matnda sintaktik birliklarni o'rganish nutqning shakllanish jarayonini, fikr ifodalashning tasviriy vositalarini baholash, leksik va frazeologik birliklarning uslubiy vazifalarini, nutq

birliklarining sintaktik-stilistik xususiyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi. “Ayniqsa, asarning sintaktik qurilishi, muallif tomonidan tilning xilma-xil ifoda vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatlarini o‘rganish, asar tilining jozibasi, individual nutqiy o‘ziga xosligini yoritish lingvopoetikaning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi”[1.30].

Darhaqiqat, poetik sintaksisining eng muhim masalalaridan biri matn tuzilishida tasviriy vositalarni aniqlash, ular yordamida matnda namoyon bo‘ladigan muallifning badiiy olamini tadqiq qilishdan iboratdir. She‘riy nutq, eng avvalo, ohangdor, ritmik-intonatsion jihatdan bir butunlik hosil qiluvchi nutq ko‘rinishidir. Bu xususiyatning yuzaga chiqishida sintaktik figuralarning o‘rni beqiyos.

Adabiyotlar tahlili. “Tilshunoslikda stilistik figuralar, sintaktik figuralar, poetik sintaksis terminlaridan foydalaniladi”[9.127]. Figura (lotincha figura – ko‘rinish, tasvir, obraz) – stilistik usullarning umumiy nomi bo‘lib, unda qo‘llanilgan har bir so‘z yoki birikma troplardan farqli ravishda faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanmaydi. Ularning qo‘llanishi va uslubiy ma’no ifoda etish uchun funksiyalashuvi o‘ziga xosdir. Ular odatiy ma’noda qo‘llanish holatlaridan tashqariga chiqib, ifodalilik va tasviriylikni kuchaytirish maqsadida alohida obrazli birikmalar tarkibida keladi. “Sintaktik vositalar badiiy matnda integrativ munosabatlarning yuzaga kelishida faol ishtirok etishi barobarida ayni munosabatlar fonida xilma-xil badiiy ma’no-mazmunlarni ham ifodalay oladi. Bu ma’noda ularning badiiy matndagi estetik salmog‘i leksik vositalarnikidan qolishmaydi”.[1.242]

Tilshunos olim M.Abdupattoyev “sintaktik figuralar asosan poetik nutqda shakllanadi. Ular vositasida poetik nutqning uslubiy imkoniyatlari kengroq ochiladi. Sintaktik figuralarning barcha turlarida, eng avvalo, ularni tashkil etgan bo‘laklar ma’nosi muhim ahamiyatga ega bo‘lishi”ni ta’kidlaydi, sintaktik figuralarning muhim vazifasi sifatida sintaktik figuralar bir paytning o‘zida badiiy nutqni shakllantiruvchi vosita vazifasini ham bajarib, ular sintaktik birliklarni bir mavzu yoki bir stilistik maqsad atrofida birlashtirib, poetik nutqning ichki (birlashtiruvchi) intonatsiyasi va ritmini ta’minlashi”ni e’tirof etadi.[1.155]

Tilshunoslikda sintaktik figuralar turli nomlar ostida o‘rganilgan va ularning tasnifi bo‘yicha turlicha nazariy qarashlar mavjud. O‘zbek tilshunosligida ularning ayrim turlari alohida tadqiq qilingan bo‘lsa-da, [10.17-42] mazkur ishlarda ular “stilistik figuralar”, “uslubiy vositalar”, “sintaktik-stilistik figuralar”, “uslubiy figuralar” kabi turli atamalar ostida o‘rganilgan. Kuzatilganidek, ularni nomlashda ham umumiy bir fikrga kelinmagan. Shuning uchun ularni *sintaktik figuralar* deb atash maqsadga muvofiq, chunki mazkur figuralarning barchasi sintaktik birlik sifatida shakllanadi va sintaktik butunliklar tarkibida o‘z stilistik imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. She‘riy nutq kompozitsion-sintaktik tuzilishida takroriy birliklar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, she‘r matnining shakllanishini ta’minlashga hamda voqelikdan olingan hissiy taassurotning emotsional ta’sir kuchini oshirishda va

musiqiy ohangning uyg'unlashuvida muhim o'rin tutadi.[10.17-42] **Takrorlar** poetik nutqning aniq belgilangan o'rinlarda qo'llanib, fikr mazmunini kuchaytirish va ta'kidlash bilan birga, bir paytning o'zida kompozitsion yaxlitlik hosil qilish va ekspressiya ifoda etishi jihatidan muhim vazifa bajaradi. Takrorlarning sintaktik figura sifatida lingvopoetik xususiyatlarini cho'ng shoir Shavkat Rahmon she'rlari misolida tadqiq etishni masad qildik. Shavkat Rahmon she'rlarida ham takrorlar matni shakllantiruvchi, ifoda ta'sirchanligini orttiruvchi, she'r bandlarini umumiy mazmunda bog'lovchi, ohang butunligini hosil qiluvchi birlik sifatida muhim lingvopoetik vazifa bajaradi.

Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, to'liqroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Takror yordamida nutqning ta'sirchanligi ortadi. Takrorning bir necha ko'rinishlari bor, ular ham matn shakllanishida uslubiy vazifa bajaradi: fonetik takror, leksik-semantik va grammatik takror. Fonetik takror deganda tovushlarning matn tarkibida alohida maqsad bilan takrorlanishi nazarda tutilsa, grammatik takrorda esa so'z birikmasi va gaplarning takrorlanishi tushuniladi.

Takrorlar qo'llanish o'rniga ko'ra gorizontal va vertikal bo'ladi. Bunday takrorlar, ayniqsa, she'riy matnlarda o'ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Shuningdek, takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga ko'ra ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, fe'l takrori kabilarga bo'linadi. Sintaktik tabiatiga ko'ra so'z birikmasi takrori va jumla takrori ham farqlanadi. Mazkur birliklarning joylashish o'ri va o'rtadagi masofasiga ko'ra kontakt (masofasiz, yaqin o'rinli), distant (masofali, uzoq o'rinli) takrorlarga ajratiladi.[13.380]

Takrorlanuvchi birliklar poetik nutqning turli o'rinlarida kelishi mumkin, shunga ko'ra uning anafora, epifora, infora kabi turlari farqlanadi. Ular o'zbek tilshunosligida badiiy tasvir vositalari sifatida keng va atroflicha o'rganilgan.[5.27]

Shavkat Rahmon she'rlarida ham takrordan sintaktik vosita sifatida foydalangan.

Anafora (yunon. ἀναφορά - yuqoriga ko'tarish; takrorlash), yoki yakka boshlanish – qo'shni she'rlar yoki bandlarning boshida yaqin tovushlar, so'zlar, sintaktik yoki ritmik tuzilmalarni takrorlashdan iborat uslubiy vosita. Shoir anaforadan matni shakllantiruvchi vosita sifatida hamda fikr qaratilgan gap bo'lagi mazmuni to'liq va ta'sirli anglanishida unumli foydalangan.

Sezaman – poyonsiz qorong'ilikda

Chinqirib o'sadi ho'rlangan maysa.

Sezaman – bevaqt kesilgan daraxt

battar ko'karishni o'ylab shaylanar.

Sezaman – ne yildir zahardan karaxt

zamin o'z uyida dashtga aylanar. (“Shabi xayol”)

Sezaman takrori orqali shoir badiiy niyatini bo'rtiq ifodalagan. Badiiy matni lingvopoetik tadqiq qilish tamoyillaridan biri [6.157] *zamon va makon birligi* tamoyili,

unga ko‘ra har qanday asar davr va makon bilan bog‘liq holda yuzaga keladi, asarning yozilgan davriga qarab uning mazmun va mavzu mantiqiyliigi va aktualliigi belgilanadi. “Shabi xayol” she‘rida ekologik muammo tasvirlangan. Shoir yashagan davrda muammolarni ochiq ko‘rsatish imkoniyati yo‘q bir davrda paxta siyosati tufayli o‘simlik va suvlarning zaharlanishi, Orolning qurishi, umuman, tabiatning jabr ko‘rishi, juda katta fojiaiy oqibatlariga olib kelishi she‘rda badiiy obrazlantirilgan. Takroriy birlikning misra boshida o‘rinlashishi kitobxon e‘tiborini bu ekologik muammoga tortishda, kitobxonda har bir takror orqali ifoda etilayotgan baytning mazmunini tasviriy ifodasini oshirishda muhim lingvopoetik vazifa bajarangan. Takror she‘rning o‘ziga xos ohang butunligini ta‘minlashda faol ishtirok etgan. Ayniqsa, takroriy birlik sifatida kesimning tanlanishi badiiy mazmunni ta‘kidlashda muhim unsur bo‘lib, kesim gap bo‘laklar ichida gapning markazi va unda asosiy fikr aks etgan. Bu esa takrorlanayotgan birlik mikro matnda alohida hukmlar ifodalab, ularni makro matnda umumiy bir mazmuniy mahrajda birlashtirish imkonini bergan. Natijada inson o‘z qo‘li bilan hosil qilayotgan ekologik fojia tub mohiyati bilan tasvirlangan, takror usuli matnning ta‘sirli ifodalanishini ta‘minlagan.

Takrorlarning muhim xususiyatini tilshunos olim R.Qo‘ng‘urov quydagilarda ko‘rsatadi: “Shoir yoki yozuvchi tasvirlanayotgan voqea-hodisaning nazarda tutilgan tomoniga o‘quvchining diqqatini tortish, uni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun yoki ma‘lum narsalarni sanab ko‘rsatish niyatida ko‘proq she‘riy asarlarda, ba‘zan nasriy asarlarda ham ayrim tovush yoki tovushlar birikmasi, gaplarga ataylab alohida urg‘u beradi, takrorlaydi”. [9.127]

Shavkat Rahmon she‘rlarida takroriy birliklar matnni shakllantiruvchi vosita sifatida alohida badiiy-estetik mohiyat kasb etgan. She‘r badiiy matn hisoblanganligi uchun ham badiiyatga daxldor barcha unsurlarni o‘zida mujassamlaydi. Takrorlanuvchi har bitta birlik badiiy matnda bir necha vazifani bajarishga moslashgan. Estetik vazifa bu vazifalarning eng asosiylaridan biri hisoblanadi.

Kuylashar –

o‘rmonday gurkirar o‘tlar.

Kuylashar –

minglagan quyoshlar balqar.

Naqadar baxtsizdir,

naqadar go‘ldir

yagona qo‘shig‘i bo‘lmagan xalqlar. (“Gurjiston mozaikasi”)

Bu o‘rinda takroriy qo‘llangan birliklar matnni shakllantirish, sintaktik-kompozitsion butunlik, ohang tugalligini hosil qilish bilan birga badiiy mazmunni antiteza asosida ifodalash imkonini yaratadi. Ma‘lumki, antiteza mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo‘yish, zidlash hodisasidir. Badiiy nutqda antitezadan alohida tasviriy vosita sifatida foydalaniladi. Qiyos orqali aytilayotgan

fikr kengroq anglanadi. Erkin xalqning hurligini ifodalovchi qo‘shig‘i ularning mustaqillik madhiyasidir. Bu badiiy mazmun *kuylashar* sintaktik birligining takrori orqali tasvirlangan. Takrordan so‘ng tirening qo‘yilishi va ochiq qoldirib bir misrani tashkil etishi kitobxonda jo‘rovoz bo‘lib kuylayotgandek, erkin ijro tasavvurini uyg‘otadi. *Naqadar* jumlasining takrori tobe xalqning o‘zi anglab anglolmagan fojiali holatini bo‘rttirib ifodalagan. *Kuylashar* va *naqadar* takrorlarining matndagi o‘rni orqali ham shoir *erkinlikni kenglikda, qaramlikni siqqlik* orqali tasvirlaydi. Anaforani bu tarzda qo‘llash matnning estetik ta‘sirini oshirgan va shoirning anafora orqali badiiy niyatini ifodalashda o‘izga xos yondashuvini ko‘rsatadi.

Epifora (grech. ἐπιφορά - takrorlash) - she‘riyatda ko‘proq uchraydigan anaforaga qarama-qarshi bo‘lgan stilistik figura, she‘riy satrlar oxirida so‘z yoki iboraning takrorlanishi.[8.376] Ayrim ishlarda band oxiridagi misraning takrorlanishi ham epifora tarzida ko‘rsatiladi.

*Suv kabi oqarsan – daryolar yonar,
shamolga do‘narsan – dunyolar yonar.
Sangin ko‘zlarini qadarsan sokin,
gurillab-gurillab yalovlar yonar.* (“Uzoqdan qarasang...”)

Keltirilgan misolda lirik qahramonning ruhiy holati tasvirlayotgan ish-harakat takrorlangan. Haqiqatni bilib turib uni ayta olmaslik, xalqni erkinlikka olib chiqish yo‘lini bila turib uni ko‘rsata olmaslikdagi ruhiy qiynoq o‘xshatishlar orqali ifodalangan va bu o‘rinda takrorlanayotgan birlik sintaktik-kompozitsion butunlikni ta‘minlash bilan birga badiiy niyatni emotsionalligini oshirishda, she‘rning ohang tugalligini ta‘minlashda muhim lingvopoetik vazifa bajargan.

*Ey, shoir,
basharning dardini olib,
umrbod hor bo‘lib yashagan shoir,
faqat sen bilasan – dard girdobida
yashamoq go‘zaldir,
yashamoq og‘ir.* (“Uzoqdan qarasang...”)

Bu o‘rinda shoir o‘zi tasvirlayotgan voqea-hodisaning nazarda tutilgan tomoniga o‘quvchining diqqatini tortish, uni bo‘rttiribroq ko‘rsatish uchun takrordan foydalanadi. Takrorlanayotgan birlik *shoir* leksemasida ham ayni holat kuzatiladi. Takrorlanayotgan so‘zning badiiy quvvatini oshirayotgan yana bir badiiy usul antiteza asosida fikr bayon qilingani. Badiiy nutqda antiteza tilning barcha – fonetik, leksik, morfologik va grammatik sathlarida ham kuzatiladi. Leksik sathda o‘zaro zidlanayotgan so‘zlar kontrast tushunchalarni ifodalaydi va ularning uslubiy bo‘yoqdorlik belgisini kuchaytiradi. Bu o‘rinda go‘zal va og‘ir so‘zlari kontrastlik hosil qilib, takrorlanayotgan bo‘lakning, ma‘no qirralarini kengroq ochib berishga xizmat qilgan. Qo‘llangan sintaktik figura matnning

badiiy mazmuni tasdig'iga, matnni kompozitsion va ohang butunligini ta'minlashda muhim unsur bo'lib xizmat qilgan.

Bundan tashqari shoir she'rlaridagi badiiy takrorlar fikrni teran ifodalashda, she'r g'oyasi va shakli o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etgan.

*Muhabbat – chiroyli kapalak,
Qo'rqaman sho'rlikni tutgani.
Kapalak quvganim yodimda,
yodimda yo'q ammo yetganim.* (“Muhabbat”)

Bu to'rtlikda takrorlar matnning sintaktik qurilishini shakllantirish bilan bir qatorda uning ichki ritmik-intonatsiyasini ham hosil qilgan. Ayniqsa, so'z o'yiniga qurilgan “*Kapalak quvganim yodimda, yodimda yo'q ammo yetganim*” misralari mazmun va ohang butunligini ta'minlab, kitobxon e'tiborini tez tortishi, anglashilgan mazmunning ta'sirchanligini oshirishi bilan badiiy qimmatga ega. Bu o'rinda takrorlanayotgan *kapalak, yodimda* so'zlari o'rinlashuviga ko'ra distant kontakt takrorlar, *yodimda* so'zining misra oxirida va keyingi misra boshida qayta qo'llanishiga ko'ra takrorning *akromonogramma* turini hosil qilmoqda.

Akromonogramma va uning ko'rinishlari anadiplozis, epanalepsis, epanafora, eponostrofa kabilar klassik adabiyotdagi *tasbig'* san'atiga to'g'ri keladi. Akromonogrammada bir to'rtlik yoki bayt qaysi gap bilan tugasa, ikkinchisi shu birlik bilan boshlanadi. Uning boshqa ko'rinishlarida ham so'z, so'z birikmalari shu tartibda takrorlanadi. [7.376]

*Zulfiqor ruh kerak,
kerak chin yog'du,
chin ishq yog'dulari bag'ringa to'lsin,
jismimni toblasin faqat chin og'riq,
chechaklar qop-qora bo'lsa-da bo'lsin.* (“Tariqat”)

Shavkat Rahmon “tariqatining” asosi qaramlikdan, mute'likdan xalos bo'lish ruhi “zulfiqor ruh”, “xaloskor ruh”ga asoslanadi. Yog'du – yorug', zulfiqor ruh. Bu yo'l – erkinlik yo'li, hurlik yo'li, erkinlikka erishish Alining qilichi kabi ikki tig'li – birida ilm, birida adolat birlashgan – zulfiqor ruh bilan qo'lga kiritilishi, chin og'riq – zulfiqor ruh metin iroda bilan erkinlikka erishish. *Chechak* umidning, orzuning gullashi, amalga oshishi, qoraligi qora kunlarni yengib o'tishga ishora. Bu o'rinda qo'llangan takroriy birliklar poetik matnni shakllantirish bilan birga shoirning badiiy niyatiga shamchiroq tutganday o'quvchini yetaklaydi, takrorlar bilan birga intonatsiya ham o'sib-o'zgarib boradi. Matnning mazmun va sintaktik-kompozitsion, ohang butunligi uning she'riy nutqda muhim unsur bo'lib, she'rning badiiy kamolotini belgilaydi. Adabiyotshunos olim N.Afoqova ta'kidlaganidek: “Haqiqiy san'at asari unda faqat aktual, umuminsoniy fikr va

g‘oyalar tasvir va targ‘ib qilinganligi bilangina emas, balki shu fikr – g‘oyalarning yuksak badiiyat orqali ifodalanganligi bilan ham e‘tiborli va boqiydir”. [2.9]

Akromonogramma takrorining yana bir o‘ziga xos ko‘rinishini “Uzum yig‘lar” she‘rida uchratamiz. Bajarilayotgan ish-harakatning davomiyligini ko‘rsatish uchun fe‘llarni davomli zamonda takror qo‘llaydi, harakatning uzoq bajarilayotganligini takrorlanayotgan fe‘lni qayta qo‘llash orqali muntazam bajarilgan ish-harakat ifodalagan.

Uzum yig‘lar,

Yig‘lar buralib,

Yig‘layverar qishgacha dildan,

billur kabi mo‘ldir turlanib,

kuzda do‘nar oltin shingilga.

Poyoni yo‘q kuz og‘ushida

qanday go‘zal yig‘laydi uzum!

Shunday bo‘lar haqiqiy yig‘i.

Ko‘rib qo‘ygin, ey, noshud ko‘zim! (“Uzum yig‘lar...”)

Shoir tabiat va inson uyg‘unligini uzum daraxtida kechadigan biologik va fiziologik jarayonlarni o‘xshatish orqali aks ettiradi. Uzum daraxtining gullash davrida suv ko‘rinishidagi suyuqlik ajratishini shoir inson ko‘z yoshiga, tugilgan mevasi shaklini ko‘z yoshi ko‘rinishiga qiyoslaydi. Uzum uzun yig‘lab, ranggi ro‘yi o‘zgarib yetilishini, huddiki insonlarda ham yig‘i inson kamolotiga xizmat qilishi kerakligi (*Shunday bo‘lar haqiqiy yig‘i. Ko‘rib qo‘ygin, ey, noshud ko‘zim*) haqidagi falsafiy fikr she‘r matniga singdirilgan. U *uzum, yig‘i, yig‘lamoq, ko‘z so‘zlari* mazmuniy qurshovidan va takrorlar orqali ifodalangan.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, takroriy birliklar matnni shakllantiruvchi, ifoda ta‘sirchanligini orttiruvchi vositalardan biri, badiiy mazmunning estetik vazifasi reallashuvida faol ishtirok etadi. Shavkat Rahmon she‘rlarida takrorlarning bir necha turidan foydalangan. Takrorlarning asosiy xususiyati poetik ta‘kid hosil qilish.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Филол. фан. д-ри.... дис. – Фарғона, 2021– Б. 30.
2. Афоқова Н. Абдулла Орипов лирикасида бадий санъатлар. – Бухоро, 1994. – Б. 9.
3. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика, Стилистика. – Л., 1977. – Б. 19.
4. Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодалашнинг усул ҳамда воситалари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 25.
5. Ибрагимова Э.И. Ўзбек тилида бадий тасвир воситалари хусусида баъзи мулоҳазалар. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. – №2. – Б. 88–90.
6. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси.-Тошкент: Фан, 2008 – Б. 154.
7. Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув кўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994.– Б. 44.
8. Квятковский А.П. Поэтический словарь. – М.: Сов. Энцикл., 1966. – С. 376.

9. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 127.
10. Мамажонов М. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990, – Б. 17–42.
11. Mamajonov A., Addupatoyev M. O‘zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti. – Farg‘ona: Classic, 2021. – B. 105–112;
12. Мамажонов М., Махмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона, 1994. – Б. 48; Mamajonov A., Addupatoyev M.
13. Üstünova Kerime. Dede Korkut Destanları ve Cümleden Büyük Birlikler. 1.Baskı 1998, İstanbul, Alfa. – 380 s.
14. Yuldasheva Z. Xoldorxon dostonidagi takrorlarning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024.
15. Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Фарғона, 2004. – Б. 26.
16. Шофқоров А. Миртемир шеърятнда такрорнинг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 27.

